

METROLOGIYA FANI RIVOJIDA "BOBURNOMA" DA KELITIRILGAN MASOFA BIRLIKLARI AHAMIYATI.

Allayarova Sevinch

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan masofa o'lchovlari haqida so'z ketgan. Shuningdek, masofa birliklarining hozirgi kundagi qiymati haqida qisqacha yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boburnoma, metrologiya, kurux, milya, yig'och.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib tayinlangan. Zahiriddin Muhammad Bobur shu taxtga o'tirgan kundan to vafotiga qadar ko'rgan-kechirganlarini «Vaqoye»(Bu asar boshqa manbalarda «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «Boburiya» kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyinchalik uni «Boburnoma» deyish rasm bo'lib qolgan) siga yozib boradi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalasi esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib xissa bo'lib qo'shildi.

Har bir o'lchov birligi o'zining uzoq tarixiga ega.O'lchov birliklari mavjud bo'lmagan davrlarda odamlar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, biror narsaning miqdorini o'lchashda ulardan foydalanganlar. Ilgari inson tana a'zolari ham o'lchov vositasi sifatida qo'llanilgan. Bizga yetib kelgan yozma yodgorliklarda ular o'z ifodasini topib, turli davrlarda har xil yuritilgan. Kishilik jamiyatida o'lchov birliklarining o'ziga xos o'rni mavjud. Shu bois o'lchov birliklari ko'plab ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarda qayd etilgan. Ushbu maqolamizda Z.M.Boburning "Boburnoma" asarida qo'llanilgan o'lchov birliklari haqida so'z yuritiladi. "Boburnoma" asarida qo'llanilgan o'lchov birliklarini quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida "qadam" , "yig'och","shar'i", "gaz", "kurux", "qari","qarish" kabi uzunlik o'lchov birliklari haqida ma'lumotlar keltiriladi: Qadam - (1 qadam o'rtacha 75 sm ga teng) Bobur bu o'lchov birlik haqida shunday fikr yuritadi: Amir Temur Samarqandni

poytaxt qilgandir. Temurbekdan avvalgi hech bir ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emas. Temurbek u yerga qadam urganida o'n ming olti yuz qadam chiqdi.¹ Yig'och - (1 yig'och olti-to'qqiz kilometr atrofida). Boburnomada O'sh shahri haqida malumotlar keltirilib, shahar Andijonning janubi-sharqiy tarafida joylashgandur, sharqqa moyil deyilgan. Andijondan to'rt yig'och uzoqlikdadir. Havosi toza va oqar suvi farovondur.² Boburnomada yurtimiz Kesh haqida ham aytib o'tilgan. Kesh Samarqandning janubida joylashgan, to'qqiz yig'och yo'ldir. Samarqand bilan Kesh orasida bir tog' tushubdur buni Itmak dovoni derlar. Shuningdek, yana bir viloyat bordurkim, uni Nasaf va Naxshab ham derlar mog'ulcha Qarshi deb atashadi. Samarqanddan janubdadur, bir nima g'arbiga moyil, o'n sakkiz yig'och yo'ldur.

Shar'i - (1 shar'i 3kilometrغا teng). Xon yurtiga mansub yana bir bog' borki uni Ko'nigil derlar. Samarqandning sharq tarafidadur, bir nima shimolga moyil. Ko'nigil Samarqanddan bir shar'i uzoqlikda joylashgan.

Kurux - (1 kurux 2 kilometr atrofida). "Samarqandning sharq tarafi Xon yurtiga tushuldik. Samarqanddin uch kurux bo'lg'ay".

"Biz O'shdan ketdik va yarim kecha Andijonning bir kuruxida Childuxtaron ro'baro'yiga kelduk".

Qari - (0,5 metr). "Ulug'bek mirzo... Ko'xak sari domonada yana bir bog'cha solibdur, anda bir ulug' ayvon imorat qilibdur. Ayvonning ichida bir ulug' toj taxt qo'yubtur to'li (uzunligi) taxminan o'n to'rt - o'n besh qari bo'lg'ay, arzi (kengligi) yetti-sakkiz qari, unki (balandligi) bir qari"

Gariy. Asarda vaqt o'lchovini ifodalash uchun turli so'zlardan foydalanilgan. Shulardan biri gariy so'zi hisoblanadi. Bu so'z minut, daqiqa so'zlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Gariy - yigirma-yigirma besh vaqt oralig'idagi vaqt ma'nosida qo'llanilgan. Masalan: Bir gariyga yovuq suron edi va g'avg'o edi.

Pahr va pos. Bu ikkala so'z ham vaqt o'lchovini ifodalash uchun ishlatilgan. Hindcha so'z bo'lgan pahr va forscha pos so'zlari o'zaro ma'nodosh so'z hisoblanadi. Pos-3 soat, kecha-kunduzning 8 dan bir qismini ifodalaydi: ...Ikki pos bo'lub edikim, Kobul suvining yoqasig'a kelib, ozroqcha uxladuk.

Lug'atlarda pahr so'zi kecha-kunduzning 1/4 qismi, ya'ni uch soatga teng. Ularning ifodalagan vaqt birligi bir xil. Shuning uchun bu so'zlarni sinonim sifatida qo'llash mumkin. Pahr so'zi "Boburnoma" asarida posga nisbatan ko'proq qo'llanilgan: Tungi ikkinchi posga yaqin bir yerga kelib uyquladik. Kunning birinchi pahaarida chorbog'ga kelib tushdik.

Misqol. Qadimiy og'irlik o'lchov birligi. (4.35-4.86gramm oralig'idagi og'irlik o'lchov birligi). Sharq mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og'irligi misqol bilan o'lchangan. VI-VIII asrlarda Samarqandda bir misqol 4.6 grammga, o'rta asrlarda O'rta osiyoda bir misqol 4.25 grammga teng bo'lgan. XIX-XX asrlarda Farg'onada bir misqol 4.53-4.55 grammga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi hisoblangan. Misqolning og'irligi 100 dona arpa yoki bug'doy don og'irligiga tenglashtirilgan.

To'la. B.Xintsning yozishicha, bu so'z XVI asrda, ya'ni Akbarshoh davrida 12 moshaga, ya'ni 12.0504 grammga teng bo'lgan. To'la keyinchalik, hindlarda 12 kilogrammlik og'irlik o'lchovini ifodalagan. Ba'zi lug'atlarda to'lani 2.5 misqolga teng ekanligi ko'rsatilgan. To'la o'lchov birligi Hindistonda uzoq vaqt davomida qo'llanilgan. Bu so'zni moxicha va maxa deb ham atashgan. Beruniyning "Hindiston" asarida 1 to'la 12 moshaga teng ekanligi qayd etilgan. "Boburnoma"da quyidagi matnda uchratishimiz mumkin: O'n ikki moshaga bir to'lakim, to'qson olti rati bo'lgay.

Manzil. Asli arabcha so'z bo'lgan bu so'z omonim hisoblanadi. Turar joy ma'nosidan tashqari uzunlik o'lchov birligi sifatida ham qo'llanilgan. Manzil-yo'lning bir to'xtash joyidan ikkinchi bir to'xtash joyigacha bo'lgan masofani ifodalagan. Bu so'z Eronda yo'l o'lchovi birligi sifatida qo'llanilgan. "Lug'atnoma" da manzil karvon bir kunda yuradigan masofa berilgan. Bir manzil tuyada bir kunlik yo'l, ya'ni 25-30 kmdan iborat.

P.Hamdovning yozishicha, manzil noaniq o'lchov birligi bo'lib, ikki joy orasidagi masofani anglatgan. Forslarda ham manzil masofa o'lchov birligi hisoblangan. Tahminan ruslarning 50-6-verstiga teng bo'lgan. Manzil so'zi "Boburnoma" asarida faqat bir o'rinda qo'llanilgan: Chun Sulton Ahmad mirzo murojaat qildi, ikki-uch manzildan keyin mijozni etidol natijidin munharif bo'lib, muxriq, isitma tori bo'ldi.

Pal. Bu so'z ham asarda vaqt o'lchov birligi sifatida qo'llanilgan: Yana har gariyni oltmish bo'lubturlar, har birini pal deb turlarkim, bir kecha-kunduz uch ming olti yuz pal bo'lg'ay.

Qarn. Vaqt ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan. Asr so'zi o'rnida qo'llanilgan: Tengri otini farxunda va muborak qilg'ay, manga va sanga ko'p yillar va bisyor qarnlar Al'amoni davlat va saodat bila tuta bergay.

Botmon. (o'zbekcha) 1) O'zbekistonning turli yerlarida (Xorazmdan boshqa) ikki puddan o'n bir pudgacha bo'lgan og'irlik o'lchov birligi. N.Ahrorovning kitobida Botmon, mann og'irlik o'lchov birligi; Yaqin va Sharq mamlakatlarida, O'rta Osiyoda qo'llanilib kelgan deb qayd etilgan. Bu o'lchov paxta va mevalarni o'lchashda qo'llanilgan. 1884-yil ma'lumotlariga qaraganda, Qo'qonda 1 botmon 10 pudga, ya'ni 163.805 kg ga teng

bo'lib, donlarni o'lchashda qo'llanilgan. Toshkent va Toshkent viloyatlarida mann o'rniga ko'proq botmon ishlatilgan. O'rta Osiyoning ko'p joylarida botmon yer yuzasini o'lchash sifatida ham qo'llanilgan. 1 botmon yer yer deganda 1 botmon don ekiladigan maydon tushuniladi. Hozirgi vaqtda 1 botmon taxminan bir gektarga teng sath o'lchov birligi hisoblanadi. Bu so'z "Boburnoma"da quyidagi matnda uchraydi: Bu xud muqarrardir, har yerda qirq ser bir botmon bo'lur, o'n ikki botmon bir moni bo'lur. Asarda botmon og'irlik o'lchovi sifatida qo'llanilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Boburnoma" asarida juda ko'plab o'lchov birliklarini uchratishimiz mumkin. Ularning ayrimlari aniq miqdorni ifodalasa, ayrimlari noaniq miqdorni ifodalashga xizmat qilgan. Hatto, turli yurtlarning o'lchov birliklarini ham keltiradi. Asarda qo'llangan o'lchov birliklarining muayyan guruhi o'sha davrda boshqa turkiy tillarda ham faol ishlatilgan. Bunday birliklarni hududiy va davrlar asosida o'rganish ularning qiymatini keltirib chiqarishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Z.M.Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.
2. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
3. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАҲРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ* 6.1 (2023).
4. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 21. 2022.
5. Khojayorov, Asilbek. "THE SCIENTIFIC–LITERARY ENVIRONMENT OF THE NASAF OASIS IN THE MIDDLE AGES." *Educational Research in Universal Sciences* 2.3 (2023): 885-888.
6. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ–АДАБИЙ ҲАЁТИ." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.7 (2023): 41-43.
7. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида." *Academic research in educational sciences* 3 (2022): 399-411.